



Javlon IBRAGIMOV,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti v.b., f.f.d
E-mail: boburdusyorov@gmail.com

NavDU dotsenti, f.f.d F.Yuldashev taqrizi bilan

O'ZBEK TILINI AMALIY TADQIQ QILISH ZARURATI

Annotatsiya

Garchi tilshunoslik fani XIX asrda mustaqillikka erishib, davr talabiga o'z muammosi doirasida munosabatda bo'la boshlaganiga qaramay, boshqa fanlar tarkibida bo'lgan zamonda ham ijtimoiy buyurtma olar va uni ado etish bilan mashg'ul bo'lar edi. O'zbek tilshunosligi tarixida XX asrning birinchi yarmi hozirgi o'zbek adabiy tili meyorlarini ishlab chiqish va ommalashtirish davri hisoblanadi. O'z oldiga davr talablaridan kelib chiqib, muayyan maqsadlarni qo'ygan o'zbek tilshunosligi 50-60 yil mobaynida o'zbek adabiy tili meyorlarini ishlab chiqish va ommalashtirishdan iborat ulkan zarurat asosida ish ko'rdi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, o'zbek tili, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy hayot, qarluk, lahja, lingvistik, etnografik, ilmiy adabiyotlar.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРАКТИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

Несмотря на то, что наука языкознание обрела в XIX веке самостоятельность и стала отвечать потребностям времени в рамках своей собственной проблемы, она получила социальный заказ и была занята его выполнением даже в то время, когда входила в состав других наук. В истории узбекского языкознания первая половина XX века является периодом развития и популяризации норм современного узбекского литературного языка. Исходя из требований времени, узбекское языкознание, поставив перед собой конкретные задачи, работало исходя из большой необходимости разработки и популяризации норм узбекского литературного языка в течение 50-60 лет.

Ключевые слова: Языкознание, узбекский язык, общественное развитие, экономическая жизнь, каралук, диалект, лингвистическая, этнографическая, научная литература.

THE NEED FOR PRACTICAL STUDYING THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

Despite the fact that the science of linguistics gained independence in the 19th century and began to meet the needs of the time within the framework of its own problem, it received a social order and was busy fulfilling it even at a time when it was part of other sciences. In the history of Uzbek linguistics, the first half of the 20th century is a period of development and popularization of the norms of the modern Uzbek literary language. Based on the requirements of the time, Uzbek linguistics, having set specific tasks for itself, worked on the basis of the great need to develop and popularize the norms of the Uzbek literary language for 50-60 years.

Key words: Linguistics, Uzbek language, social development, economic life, Karaluk, dialect, linguistic, ethnographic, scientific literature.

Kirish. X-XI asrlar o'zbek xalqi tarixida taraqqiyot tendensiyalarining o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. X asrning birinchi yarmida Yettisuv va Koshg'ar hududida istiqomat qiluvchi qarluk, chigil va yag'mo qabilalari ijtimoiy va iqtisodiy hayotda taraqqiyotning yangi pillapoyasiga qadam qo'yd. Iqtisodiy hayotdagi siljish shunda ko'rinadiki, ko'chmanchilik o'troq hayotga aylandi, o'troq hayot dehqonchilikning kuchayishiga olib keldi, bu esa, o'z o'rnida, shaharlarning barpo bo'lishiga, savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, bu hududdan qadimiy savdo karvon yo'lining o'tganligi ishlab chiqarish va savdo-sotiqning yuksalishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Iqtisodiy o'zgarish ijtimoiy taraqqiyot bilan birga kechdi. O'troqlashish natijasida yuzaga kelgan dehqonchilikning yangi sifat bosqichiga qadam qo'yishi feodal yer egaligini ham har taraflama rivojlantirdi. Mulkiy va sinfiy tabaqalanish kuchaydi. Xullas, "murakkab ichki jarayonlar, feodal dehqonchilik dunyosi va karvon yo'lidagi boy savdo-hunarmandchilik shaharlarining bevosita ta'siri chorvador turk qabilalarining ijtimoiy hayotida ilk feodal munosabatlarning shakllanishida asosiy omil bo'ldi. Buning oqibatida bu hududlarda siyosiy vaziyat nihoyatda keskinlashib ketdi" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishida qarluk va chigillar, ayniqsa, qarluklar katta rol o'ynadi. Bu davrda madaniy rivojlanishda ham kichik "ellinizm"ni ko'rish mumkin. "Qoraxoniylar davlatiga madaniy jihatdan rivojlangan ikki xalq – Sharqda uyg'urlar va G'arbda turk-eronlar birlashdi. Ular madaniyati birlashib, o'sha davr tiliga ham kuchli ta'sir qildi. Natijada Sharqda qarluk-chigil-uyg'ur

dialekti asosida sharqiy adabiy til rivojlandi" [2]. Bu dialekt tarkibida qarluklar ustuvor bo'lgan. Mahmud Koshg'ariy til dalillari asosida qabilalarning o'zaro munosabati, lahjalarning bir-biriga ta'siri, ularga asos bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillar o'rni va rolini keng va atroflicha ochib beradi [3].

Turk xoqonligida urug' va qabilalarning xalq bo'lib shakllanishi uchun ijtimoiy-siyosiy imkoniyat vujudga keladi. "Bu vaqtda g'arbiy xoqonlikda qarluk, qang'li, turgesh, chigil, uyg'ur urug'lari birlashgan edi. Bular orasida qarluklar katta o'rinni egallaydi (ajratish bizniki – J.I.). Bu urug'lar qadimda Oltoyning g'arbiy qismidan kelib, Farg'ona va Toshkent havzasiga joylashadi. Xalaj va qarluk urug'lari avvalo Yettisuvda, qang'lilar Qozog'iston va Qirg'iziston yerlarida, yag'molar Issiqko'lning janubi va Sharqiy Turkistonda, turgeshlar Balxash ko'lining janubida, chigil (chigli)lar esa Issiqko'l atrofida yashab, keyinroq O'zbekiston hududiga ham ko'chadi va mahalliy urug'lar bilan qo'shilib ketadi. Turkiy urug' va qabilalarning o'troqlashishi, katta shaharlarning paydo bo'lishi turk xalqi hamda umumturkiy xalq tilining shakllanishida katta rol o'ynadi. Bu vaqtda uch xil yozuv (xorazm, so'g'd, run yozuvlari) mavjud edi" [4].

Qabilalar asosida madaniy va ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan qarluk qabilasi turkiy yag'mo, chigil, uyg'ur, qipchoq, noturkiy eroniy, arabiy xalqlarning tillari xususiyatlari bilan uyg'unlashib, struktur jihatdan o'ziga xos dialekt shakllana boshlaydi. Ayniqsa, X asr oxirlarida Yettisuv va Qashqarda qoraxoniylar davlatining vujudga kelishi va bu davlat qarluk va chigil urug'laridan tashkil topishi [5], bunda qarluklarning ustunligi qarluk dialektining o'ziga xos shakl-u

shamoyildagi turkiy til darajasiga o'sishida katta omil bo'lib, lahja mustaqil til maqomi sari rivojlana boshlaydi. "Bu bosqichda o'zbek xalqi va uning umum tilining shakllanishiga zamin tayyorlana boshlaydi. Boshqa qardosh turkiy xalq va tillarning shakllanishi ham shu davrga to'g'ri keladi" [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Qoraxoniylar davlatidagi qarluq lahjasi turli manbada turlicha nom bilan yuritilgan. Zamonaviy fanda eski turkiy til atamasi bilan nomlanuvchi qarluq turkiysi turkiy, sharqiy turkiy, chig'atoy tili kabi nomlar bilan ham yuritilgan [6].

Manbalarda Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asariga lingvistik, ensiklopedik manba sifatida yondashilib, uning tarixiy va ilmiy ahamiyati haqida gap ketganda, "XI asrga kelib shahar va qishloqlardagi qabilalar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi natijasida tilda xilma-xil formalar qo'llandi. Bu esa tilda ma'lum normalar yaratishga ehtiyoj tug'dirdi. Shu ehtiyoj Mahmud Koshg'ariyini "Devoni lug'otit turk" asarini yozishga da'vat etdi" tarzidagi e'tiroflar ko'p uqtirilgan [7].

Mahmud Koshg'ariy zimmasida aloqa va muomaladagi turkiy qavmlar tillarining meyorlarini yaratish istagi shakllanayotgan tilning umumturkiy tildan ajralib, mustaqil rivojlanish o'zaniga tushganligini, uning mustaqil til ekanligini ko'rsatuvchi fonetik, leksik-grammatik xususiyatlarini o'rganish va ilmiy asoslash ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga ega, qoraxoniylar davlatining mafkuraviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilar edi. Bu – davr talabi, ijtimoiy ehtiyoj, sotsial buyurtma edi. Shu boisdan Mahmud Koshg'ariyning mazkur va topilgan yana bir – "Javohir un-nahv" asarini yozishdan maqsadi va vazifalarini ijtimoiy ehtiyoj va davr talabi kontekstida quyidagicha baholash mumkin. Ijtimoiy nuqtai nazardan xoqonlikdagi xalqlarning jipsligini mustahkamlash, mafkuraviy jihatdan xoqonlikdagi yetakchi xalqning madaniy saviyasini yoritish, lingvistik jihatdan eski o'zbek tilining lingvistik bahosini berish kabi bir-birini mustahkamlovchi zarurat ijtimoiy ehtiyoj sifatida namoyon bo'lgan.

Ijtimoiy buyurtma o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-mafkuraviy yuksalish asosida shakllanganligi bilan bir qatorda fan va madaniyatning rivojlanish darajasi ham turkiylar tilining lingvistik xususiyatini o'rganishga turtki bo'lib xizmat qilgan edi.

Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Balx, Nishopur kabi markaziy shaharlar gullab-yashnagan bu davrda kitobatchilik va kitobfurushlik, o'z navbatida, kitobxonlik bemsil rivojlangan. Kitob rastalarida diniy va dunyoviy ilmlarning nodir namunalari bo'lgan kitoblari sotilgan. Ibn Sinoning Buxoro bozoridan Abu Nasr Forobiy qalamiga mansub "Arastu "Metafizika"siga sharhlar" kitobini uch dirhamga sotib olganligi haqida xotiralari asarlarida saqlanib qolgan.

Qoraxoniylar davrigacha bo'lgan somoniylar hukmronligi davridagi siyosiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalish davrida fan va madaniyat gullab-yashnagan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Muhammad Narshaxiy kabi o'z zamonasining buyuk siymolari qoldirgan boy va nodir ilmiy yodgorliklar fanning keyingi sohalari rivojiga katta turtki bo'lganligi ayon.

Abu Nasr Forobiyning "Musiqi kitobi", "Arastuning "Metafizika" asari maqsadlari haqida", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Siyosat al-madoniya", Abu Ali Ibn Sinoning besh jildlik "Al-qonun fit-tib", "Kitob ush-shifo", "Donishnoma", "Salomon va Absol", "Risalat-at-tayr" asarlari ilmiy dunyoqarash rivojlanishida, fanning turli sohalari taraqqiyotiga kuchli ta'sir qilgan. Ayniqsa, yaratilgan ijtimoiy-siyosiy mavzudagi asarlar lingvistik qarashlarning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Abu Rayhon Beruniy tomonidan yaratilgan nodir asarlar tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar bo'yicha muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan birgalikda, o'tmishda yashab o'tgan xalq va qavmlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy hayoti, turmush tarzi bo'yicha ham keng qamrovli ma'lumotlar berishi bilan ahamiyatli. Beruniy qalamiga mansub Markaziy Osiyoning o'sha davrdagi eng ilg'or ijtimoiy harakatlaridan biri bo'lgan qarmatiylarga bag'ishlagan "Kitob fi axborot il-mubayyizot val-qaromita" ("Oq kiyimliklar va qarmatiylar xabarlar haqida kitob") asari, undan so'ng

yaratilgan "Yodgorliklar", "Hindiston", "Kitob ul-maqolot val-arz vad-diyonot" ("Maqolalar, e'tiqodlar va dinlar haqida kitob"), "Kitob fi axbori Xorazm" ("Xorazm xabarlar haqida kitob"), "Kitob tarixi ayyom as-Sulton Mahmud va axbori abihi" ("Sulton Mahmud davri tarixining kitobi va otasi haqidagi xabarlar") kabi asarlari ma'naviy va diniy, ilmiy va ijtimoiy dunyoqarashning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Olimning "Yodgorliklar" ("Al-osor al-boqiya") deb nomlangan asari podshohlar va mashhur shaxslarning tarixini yorituvchi va o'sha davrning madaniyatini aks ettiruvchi tarixiy etnografik manba. Asar islomgacha bo'lgan (Xorazmda) butun bir davr haqida qimmatli ma'lumotlar olishga imkon beradi. Unda yunonlar, rimliklar, eroniylar, so'g'diylar, xorazmliklar, harroniylar (yulduzga sig'inuvchi)lar, qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablarning yil hisoblari, bayram va mashhur kunlari batafsil yoritilgan, qator xalqlarning ijtimoiy va ma'naviy hayoti hamda tarixiga oid bebaho ma'lumot bor [8]. Bunday noyob manbalar ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy taraqqiyotda til va uning roli ortib borishini ko'rsatadi. Bu esa, o'z-o'zidan, lingvistik qarashlarning shakllanishiga va yangi sifat bosqichiga ko'tarilishiga mustahkam zamin hozirlagan.

Tahlil va natijalar. Qolaversa, nomlari zikr etilgan buyuk mutafakkirlarning bevosita tilshunoslikka oid qarashlari, yaratgan asarlari ham Mahmud Koshg'ariy lingvistik dunyoqarashi shakllanishida, davr zimmasiga yuklayotgan ijtimoiy mas'uliyatni anglab yetishida katta ahamiyat kasb etgan. To'g'ri, ayrim asarlarida Forobiyning tilshunoslikka oid qarashlari boshqa sohalarga doir qarashlaridan mustaqil ifodalanmagan. Lekin bevosita til, uning nazariy va amaliy masalalariga doir maxsus fikrlari ham borki, ular Vatani tilshunosligi rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Jumladan, "Sharh kitob-al-Xitoba li Aristotilos" ("Aristotelning "Ritorika" asariga yozilgan sharh kitobi"), "Kitob al-alfoz va al-huruf" ("So'zlar va harflar haqida kitob"), "Kalom lahu fi ma'no ism al-falsafa" ("Falsafa nomining ma'nosi haqida"), "Kitob fi al xitoba kabir, ishrun majalladan" ("Ritorika haqida yigirma jildlik katta kitob"), "Kitob fi sinoat al-kitoba" ("Yozuv san'ati haqida kitob"), "Kalom lahu fi ash-she'r va al qavofiy" ("SHE'r va qofiyalar to'g'risida so'z"), "Kitob fi al-lug'at" ("Lug'atlar haqida kitob") asarlari jahon til ilmidagi muhim voqea bo'lgan va Markaziy Osiyoda tilshunoslikning falsafiy va fahmiy bosqichlarini boshlab bergan. Koshg'ariy lingvistik dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Ko'rinadiki, shakllangan ilmiy dunyoqarash, yaratilgan ilmiy adabiyotlar yangi davr fanining rivojiga olib kelgan, ijtimoiy zarurat va davr talabi o'zining yangi sifat bosqichida ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga zamin hozirlagan.

Shunday qilib, Mahmud Koshg'ariy zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy buyurtmaning vujudga kelishi ham ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot, ham ma'naviy va mafkuraviy evrilishlar, ham ilmiy va madaniy yuksalish natijasi. Boshqa buyuk daholar "taqdiri"da bo'lgani kabi tarixiy davr va tarixiy siymo uyg'unligini Mahmud Koshg'ariy shaxsida ham yaqqol kuzatamiz. "Olim qoraxoniylar davlati xalqini turk (turklar) atamasi bilan qayd qildi, ularni va ularning tilini, avvalo, shu mintaqada yashayotgan o'g'uz, turkman va uyg'ur qavmlari hamda ularning tilidan farqladi. Davr talabi va tarixiy zaruratni anglab, qo'yilgan ijtimoiy buyurtmani mukammal darajada ado etdi"[9].

Xulosa va takliflar. Turkiy tilshunoslikning keyingi davrida ijtimoiy zaruratning xususiy masalalari ado etilganligini ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, Koshg'ariy tomonidan anglangan ijtimoiy zarurat va davr talabi asosida vujudga kelgan lingvistik amaliyot an'anasi davom ettirildi. Koshg'ariydan keyingi davr tilshunosligiga doir qarashlar tilshunoslik tarixiga doir asarlarda keng va atroflicha bayon etilgan. Biz ulardagi qarashlarni umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, "adabiy manbalarni tahlil qilish – so'z ma'nolariga, ularning qo'llanishiga e'tibor berish, izohlash, lisoniy, ma'rifiy qiymatini ochish, asarlarning tarjimai kabi masalalar bilan shug'ullanish keyingi davr leksikografiyasining maqsad va vazifasi bo'ldi. Bunda Eron shohi Nodirshohning kitobi astrobodlik Nizomiddin Muhammad Hodi al-Husayni as-Safaviy (Mirzo Mehdixon) ning "Sanglo" (1760) lug'atini alohida ta'kidlash lozim. An'anadagidek, bu lug'atdan «Maboni ul-lug'at, ya'ni sarfi va nahvi lug'ati

chig'atoy» nomi bilan eski o'zbek tilining grammatikasiga oid ayrim tavsiflar ham o'rin olganligi e'tiborga molik. Lug'atda, asosan, she'riy matnlardagi, shuningdek, Lutfiy, Bobur asarlaridagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar izohiga, ularni fors tiliga tarjima qilish muammolariga diqqat qaratilgan" [9]. Bundan tashqari, Jamoliddin Muhammad Abdulloh Turkiyning XIV asrlarda yaratilgan "Kitobu-l-lug'at al-mushtaq fi lug'ati-t-turk va-l-qafchoq" ("Turk va qipchoq tillari mushtoqlarini

qiziqtiruvchi kitob"), Asiruddin Abu Hayyon al-Andalusiy (1256–1345) ning "Kitobu-l-idrok li-l-lisonil atrok", XIV–XV asrlarda yaratilgan va muallifi noma'lum bo'lgan "Attuhfatu-z-zakiyatu fi-l-lug'ati-t-turkiya" asarlari turkiy lug'atchilik an'analari asosida yuzaga kelgan. Yetilgan ijtimoiy zarurat davr sinovlaridan o'tib, an'ana tusini olgan. An'anaviylik esa yangi sifat ko'tarilishlarini keltirib chiqarishda poydevor vazifasini o'taydi.

ADABIYOTLAR

1. Мухаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи: 6-синф тарихи ўқитувчилари учун қўлл. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
2. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
3. Кошғарий М. Девони луғотит турк. I том. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
4. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Морфология ва синтаксис: университетларнинг филология факультетлари ҳамда педагогика институтларининг тил ва адабиёт факультетлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
5. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Кўрсатилган асар.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
7. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи: Педагогика институтларининг филология факультетлари студентлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982.
8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1 жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.
9. Mengliyev B. Til ilmi: zaruriyat va an'ana // "Ma'rifat" gazetasi, 2012-yil 28 aprel.